

**ARAB TILIDA MUSNADNING DISKURSIV-PRAGMATIK
XUSUSIYATLARI (Ahmad Hoshimiyning “Javohiru-l-balog‘a” asari asosida)**

G‘ofurjonov Muhammad Nabi Abdusalom o‘g‘li
Oriental universiteti magistranti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. *Maqolada arab tilidagi musnadning diskursiv-pragmatik xususiyatlari Ahmad Hoshimiyning “Javohiru-l-balog‘a” asari misolida tahlil qilinadi. Musnadning gapdagi tartibi (taqdim va ta‘xir) hamda uning ma‘rifa va nakira holatda kelishi so‘zlovchining kommunikativ niyati va nutqiy maqom nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Klassik balog‘at tushunchalari zamonaviy tilshunoslikning axborot tuzilishi, tema-rem va fokus kabi kategoriyalari bilan qiyoslanadi. Tadqiqot musnadning shakliy holati ortida har doim muayyan pragmatik maqsad turishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *balog‘at, ma‘oniy ilmi, musnad, taqdim, ta‘xir, qasr, ma‘rifa, nakira, tafxim, tahqir, tema, rema, pragmatika, maqom.*

1. Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda diqqat markazi alohida so‘z va grammatik qoidalardan matn, diskurs va pragmatika masalalariga ko‘chgan. Arab balog‘at ilmi esa nutqning vaziyatga (maqom) muvofiqligini asrlar davomida tadqiq etib kelgan. Shu ma‘noda klassik ma‘oniy ilmi zamonaviy pragmatika bilan o‘zaro mushtarak masalalarni o‘rganadi.

Mazkur maqolada musnadning ikki muhim diskursiv-pragmatik holati — gapdagi tartibi (taqdim va ta‘xir) hamda ma‘rifa yoki nakira bo‘lib kelishi — Hoshimiyning “Javohiru-l-balog‘a” asari asosida tahlil qilinadi. Maqsad — bu holatlarning ortida turuvchi kommunikativ mantiqni ochib berish va uni zamonaviy tilshunoslik kategoriyalari bilan bog‘lashdir.

2. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Musnadning balog‘iy holatlari Sakkokiyning “Miftoh ul-ulum” va Qazviniyning “Al-Iyzo” asarlarida tizimlashtirilgan bo‘lib, Hoshimiy ularni “Javohiru-l-balog‘a”da umumlashtirdi. Taqdim va ta‘xir hodisasini Abdulqohir Jurjoniyning “Daloil ul-i‘joz”da ma‘no hosil qiluvchi asosiy vosita sifatida talqin qilgan. Zamonaviy tilshunoslikda esa axborot tuzilishi va tema-rem nazariyasi nutqdagi so‘z tartibining kommunikativ vazifasini izohlaydi. Ushbu ikki an‘anani musnad masalasi doirasida qiyoslash maqolaning asosiy ilmiy yondashuvini tashkil etadi.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tavsifiy va qiyosiy-tahliliy metodlar hamda kontekstual tahlil qoʻllanildi. Hoshimiy keltirgan Qurʼon oyatlari va sheʼriy misollar maqom doirasida tahlil qilinib, klassik balogʻat atamaları (taqdim, qasr, tafxim) zamonaviy pragmatik tushunchalar (fokus, axborot tuzilishi) bilan qiyoslandi.

4. Tahlil va natijalar

4.1. Musnadning tartibi: taqdim va taʼxir.

Arab tilida musnadning tabiiy oʻrni — musnad ilayhdan keyin keladi. Hoshimiyning koʻrsatishicha, musnadning bu odatiy oʻrnidan oldinga surilishi (taqdim) muayyan sabab boʻlganda yuz beradi. Bunday sabablar ikki strukturaviy holatni (musnadning amil boʻlishi va sadorat huquqiga ega boʻlishi) hamda yetti balogʻiy maqsadni qamrab oladi: ixtisos, tanbih, tashviq, tafaʼul, qasr, masaʼa va his-tuygʻu (taajjub, taʼzim, madh, zamm, tarahhum, duo) ifodasi.

Masalan, ixtisos (xoslash) maqsadidagi taqdim «وَلِلَّهِ مُلْكُ السَّمَوَاتِ وَالْأَرْضِ» (“Osmonlar va yerning mulki Allohnikidir”, Moida, 120) oyatida koʻrinadi: bu yerda musnad oldinga surilib, saltanat aynan Allohga xos ekani taʼkidlanadi. Qasr (chegaralash) maqsadi esa «لَكُمْ» «Sizning diningiz oʻzingizga, mening dinim oʻzingga”, Kofirun, 6) oyatida namoyon boʻladi.

Taʼxir esa musnadning asl, tabiiy oʻrni hisoblanadi. Agar musnad ilayh soʻzlovchi uchun ahamiyatliroq boʻlsa, u oldinga suriladi, musnad esa keyingi oʻrnida qoladi: «الوطن عزيز» (“Vatan azizdir”).

Diskursiv-pragmatik nuqtai nazardan bu hodisa axborot tuzilishini boshqarish vositasidir. Musnad ilayh zamonaviy tilshunoslikdagi “tema” (topik), musnad esa “rema” (fokus) tushunchasiga muvofiq keladi. Musnadning oldinga surilishi remaga qoʻshimcha urgʻu va taʼkid yuklaydi, taʼxir esa nutqning tabiiy axborot oqimini saqlaydi.

4.2. Musnadning maʼrifa va nakira holatlari.

Musnadning aniq (maʼrifa) yoki noaniq (nakira) holatda kelishi ham uslubiy-pragmatik tanlovdir. Maʼrifa musnad ikki maqsadga xizmat qiladi: tinglovchiga maʼlum narsa orqali hukm berish — «هذا الخطيب» (“Mana shu — notiqdir”) — hamda hukmni musnad ilayhga qasr qilish. Qasr haqiqiy boʻlishi mumkin — «سعد الزعيم» (“Saʼd — yagona rahnamodir”) — yoki daʼvoiy (mubolagʻali) boʻlishi mumkin: «سعد الوطني» (“Saʼd — chinakam vatanparvardir”).

Nakira musnad esa oddiy hukm bayoni, musnad ilayhga ergashish, shuningdek tafxim (ulugʻlash) va tahqir (kamsitish) kabi qarama-qarshi maʼnolarni ifodalaydi. Tafxim «هُدًى» «لِلْمُتَّقِينَ» (“taqvodorlar uchun [buyuk] hidoyatdir”, Baqara, 2) oyatida, tahqir esa «ما خالدٌ رجلاً» «Xolid eslashga arziydigan kishi emas”) jumlasida koʻrinadi.

Eng muhim nazariy natija shundaki, bir xil shakliy belgi turli — hatto qarama-qarshi — balogʻiy maqsadlarga xizmat qilishi mumkin. Buni al-Xanso baytidagi istisno tasdiqlaydi:

jins lomi bilan ta'rif har doim ham qasr ma'nosini bermaydi. Demak, balog'iy ma'no shaklning o'zidan emas, balki nutqiy maqomdan (muqtazo-l-hol) kelib chiqadi.

4.3. Klassik balog'at va zamonaviy pragmatikaning muvofiqligi.

Yuqoridagi tahlil ko'rsatadiki, Hoshimiy ilgari surgan tushunchalar zamonaviy tilshunoslik kategoriyalari bilan uzviy mos keladi: musnad ilayh — tema, musnad — rema; taqdim — fokuslash va mantiqiy urg'u; ma'rifa — taniqlilik; nakira — yangilik yoki baholash. Bu muvofiqlik klassik arab balog'ati nazariyasining bugungi matn tahlili usullari bilan boyitilishi mumkinligini ko'rsatadi.

5. Xulosa

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Musnadning gapdagi tartibi (taqdim/ta'xir) va ma'rifa-nakira holatlari grammatik majburiyat emas, balki so'zlovchining kommunikativ niyati va nutqiy maqomga muvofiq tanlanadigan uslubiy vositadir. Taqdim axborot tuzilishini boshqarib, remaga urg'u beradi; ma'rifa va nakira esa qasr, tafxim, tahqir kabi pragmatik ma'nolarni ifodalaydi. Eng muhimi — musnadning barcha shakliy holatlari yagona pragmatik mantiqqa, ya'ni muqtazo-l-hol tamoyiliga bo'ysunadi. Klassik balog'at tushunchalarining zamonaviy pragmatika bilan mosligi Hoshimiy merosining bugungi ilmiy qiymatini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qur'oni karim.
2. أحمد الهاشمي. جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبدیع. - بيروت: دار إحياء التراث العربي، 1375هـ.
3. عبد القاهر الجرجاني. دلائل الإعجاز. - القاهرة: مكتبة الخانجي، 1984.
4. أبو يعقوب يوسف السكاكي. مفتاح العلوم. - بيروت: دار الكتب العلمية، 1987.
5. جلال الدين القزويني. الإيضاح في علوم البلاغة. - بيروت: دار الكتب العلمية، 1998.
6. علي الجارم ومصطفى أمين. البلاغة الواضحة. - القاهرة: دار قباء الحديثة، 2007.
7. Rustamiy S. O'rta asrlar balog'at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. - Toshkent: Zilol buloq, 2019.
8. Nosirova M.A. Arab tili grammatikasining nazariy masalalariga oid qarashlar. - Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2020.